

## ERKIN VOHIDOV SHE'RIYATI TILIDA REDUPLIKATSIYA

Maqsudova Shahnoza Ashuraliyevna

GulDU magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7296506>

**Annotatsiya.** Maqolada Erkin Vohidov she'riyati tilida takror (reduplikatsiya)ning roli xususida so'z yuritiladi. Shu masala ustida ish olib borgan izlanuvchilar qarashlari, Erkin Vohidov ijodining aktuallashtirishda takrorning o'ziga xos xususiyatlari, shoirning o'quvchiga kommunikativ intensiyani to'g'ri yetkazishda takrorning roli tegishli misollar orqali tahlilga tortiladi.

**Kalit so'zlar:** reduplikatsiya, takror, to'liq takror, qisman takror, ritmik-qofiyali takror, mukarrar.

## РЕДУПЛИКАЦИЯ НА ЯЗЫКЕ ПОЭЗИИ ЭРКИН ВАХИДОВА

**Аннотация.** В статье говорится о роли повтора (редупликации) в языке поэзии Эркина Вахидова. Взгляды исследователей, работавших над данным вопросом, специфические особенности повтора в актуализации творчества Эркина Вахидова, роль повтора в будущей проанализирована правильная передача коммуникативного замысла поэта читателю через соответствующие примеры.

**Ключевые слова:** редупликация, повторение, полное повторение, частичное повторение, ритмико-рифмовое повторение, повторение.

## REDUPLICATION IN THE LANGUAGE OF ERKIN VAHIDOV'S POETRY

**Abstract.** The article talks about the role of repetition (reduplication) in the language of Erkin Vahidov's poetry. The views of researchers who have worked on this issue, the specific characteristics of repetition in the actualization of Erkin Vahidov's work, the role of repetition in the correct communication of the poet's communicative intention to the reader are analyzed through relevant examples.

**Key words:** reduplication, repetition, complete repetition, partial repetition, rhythmic-rhyme repetition, repeated.

## KIRISH

Erkin Vohidov haqida gapirar ekanmiz, avvalo, hech bir o'zbek millati inkor eta olmaydigan qo'shiq qilib kuylangan yuzlab yirik she'rlari, vatanparvarlik ruhida sug'orilgan dostonlari, g'azallari ko'z o'ngimizda gavdalanadi. E. Vohidov ijodida g'azal, qasida, muxammas kabi janrlarga qo'l urib, mumtoz adabiyot tajribalarini yanada boyitish, yanada mukammallashtirishga intildi. Ayniqsa, "Yoshlik" (1969) devoniga kirgan she'rlar bu jihatdan e'tiborlidir.

## METOD VA METODOLOGIYASI

Shoir xuddi shu davrdan boshlab dunyo kezdi, dunyoni ko'rdi, dunyoni tanidi. Ana shu taassurotlari asosida "Tirik sayyoralar" (1978), "Sharqiy qirg'oq" (1981) kabi she'riy to'plamlarini yaratildi. Inson taqdiri, uning baxti va kelajagi shoir ijodining bosh mavzuyiga aylandi.

Uning "Kelajakka maktub" (1983), "Yaxshidir achchiq haqiqat" (1992) to'plamlariga kirgan she'rlarida haqgo'y va bedor insonni kamol toptirish g'oyasi yetakchilik qiladi.

Shoirning "Orzu chashmasi" (1964), "Nido" (1964), "Palatkada yozilgan doston" (1966), "Quyosh maskani" (1972), "Ruhlar isyoni" (1980), "Ko'hinur" (1982) kabi liro-epik asarlari,

“Oltin devor” va “Istanbul fojeasi” kabi she’riy dramalari katta ijodiy mehnat mahsuli sifatida xalqimizning ko’ngil mulkiga aylangan.

Erkin Vohidovning to’rt jildlik “Saylanma asarlar”i, “Orzuli dunyo” (2010), “Tabassum” (2012), “Yangi she’rlar” (2015) she’riy to’plamlari adabiyot muxlislari uchun bebaho tuhfa bo’ldi.

“Fikrimcha, bular — juda yaxshi va aniq she’rlar. Shuningdek, ularda dono xotirjamlik va kenglik mavjud. Yana, og’riq bor. Haqiqiy inson og’rig’i...” - deb yozadi rus shoiri Robert Rojdestvenskiy o’zbek shoiri Erkin Vohidov haqida

## TADQIQOT NATIJASI

Darhaqiqat, shoir she’rlari tili o’zining ekspressivligi, soddaligi, ravonligi va jarangdorligi bilan ajralib turadi. She’rdagi gaplar strukturasi stilistik vositalar bilan yana ham jozibador va ta’sirchanlikka ega bo’ladi. Bunday stilistik vositalar fikrni tinglovchiga tez va oson yetkazish imkonini beradi. Quyida Erkin Vohidov she’rlariga o’ziga xos jozibadorlik baxsh etuvchi – reduplikatsiya (takror) haqida so’z yuritamiz.

Reduplikatsiya (lot. reduplicatio ikkilanish, qo’shaloqlanish) - tilshunoslikda so’zdagi dastlabki bo’g’inni yoki o’zakni, butun so’zni takror qo’llash bilan takroriy so’z, grammatik shakl hosil qilish usullaridan iborat fonomorfologik hodisa. Shu nuqtai nazardan qisman va to’liq reduplikatsiya turlari farqlanadi. Hozirgi o’zbek tilida so’z shalkining bu turi ko’plik, davomiylik va takroriylik kabi grammatik ma’nolarni ifodalaydi. Reduplikatsiya yo’li bilan hosil qilingan birliklarda leksik-grammatik jihatdan bir butunlikni hosil qiladi. Masalan: baland-baland (imoratlar), dasta-dasta (gul), kula-kula, o’sha-o’sha, katta-katta kabi. Har qanday so’zning takror holda ketma-ket kelishidan reduplikatsiya hosil bo’lavermaydi. Reduplikatsiya jahondagi turli tuzumdagiko’plab tillargaxoshodisabo’lib, uning vazifasi ham xilmaxildir: Masalan, reduplikatsiya rarotongatilidama’nonikuchaytirs (tupu — o’smoq, tutupu — gurkirabo’smoq), malayyatilidako’plikni hosil qilishning asosiy usuli (orang — odam, orangorang — odamlar) hisoblanadi. Ba’zi adabiyotlarda "reduplikatsiya" termini "takroriyshakl", "takroriyso’z" terminlaribilansinonim tarzida qo’llanadi.[1]

Tilshunoslikda takror (reduplikatsiya) – bir so’zni aynan ikki marta takrorlash sanalib, bunda ham turli Grammatik ma’nolar hosil qilinadi: predmetning ko’pligi, belgining oshirilishi, ma’noning kuchayishi, harakatning takrorlanishi hamda uzoq davom etishiva boshqalar. Chunonchi, etak-etak paxta- miqdoriy ko’plik; ayta- aytacharchamoq- harakat davomiyligi. Tilimizda bu usulning to’liq takror (etak-etak paxta) va qisman takror (qip-qizil, ko’m- ko’k, yam-yashil) vatilimizgaginaxosbo’lib, fanda "sadodosh takror" (slovo-exo) deb atalgan ko’rinishi ham keng tarqalgan (mayda-chuyda, she’r-pe’r, kitob-mitob, ko’k-mo’k, qizil-pizil).

V. Egorov o’zining maqolalaridan birida aytadi: “Dunyoning juda ko’p tillarida so’z yasashining eng qadimiy va eng oson usullaridan biri takror so’zdir. Bir xil so’zni ikki marotaba qaytarilishi ya’ni, takror so’z sifat yoki miqdorni orttirish, harakat tezligini yoki takroriyligi bilan bog’liqdir.”[2]

Bir talay tillarda takror so’zlar hatto otlarning ko’plik darajasini, sifatning oshirma darajasini, ayiruvchi sonlar va hokazolarning grammatik kategoriyalari ko’rsatkichi hisoblanadi.

## MUHOKAMA

Adabiyotimizga nazar tashlaydigan bo’lsak, she’riy san’atlarimiz tarkibida ham takror so’zlar bilan bog’liq mukarrar san’ati mavjud. Bu san’at “qayta-qayta”, “usti-usti” ma’nolarini

beradi. Baytdagi soʻzning muayyan oʻrinda takrorlanib, juftlanib kelishidir. Bu sanʼat takrirga yaqin turadi. Har bir baytda juft soʻzlarning qoʻllanishin mukarrarga xos xususiyat. Quyidagi baytda koʻrishimiz mumkin:

“Doʻstlar, men telba ahvoligʻa yigʻlang zor-zor

Kim, solodur gaz-gaz oʻt koʻnglumga tushgan xor-xor” .

Aslida mukarrar sanʼati gʻazalning matlasida ishlatilgan juft soʻzning taʼsiri butun boshli gʻazalda ifodalanishidir. Buni Rashidi Fatvo ( “Badoye ul-sanoyi” asarida ) aytib oʻtadi.

Toʻla takror soʻzlar shunday soʻzlarki,hech qanday oʻzgarishlarsiz oʻzakni yana bir bor qaytarib takrorlashdir. Masalan:

## TUSH

Bir oy boʻldi,

Takror-takror

Men bir xil tush koʻraman,

Tushlarimda mudrab yurgan

El ichida yuraman.

Qisman holda takrorlanuvchi soʻzlar shunday soʻzlarki,bunda oʻzak ikkinchi bor takrorlanayotganda birinchi oʻzakning yarmi takrorlanadi xolos.Erkin Vohidov sheʼrlarida ham bunday takrorlar talaygina.Masalan:

## TUSHLIK TANAFFUS

"Hechqisi yoʻq, sovqotdim bir oz.

Davom eting "- "Xullasi kalom,

Bir-birovga oʻrgandik oz-oz,

Bir-birovga bogʻlandik tamom.

Takror soʻzlar qofiyali boʻlib kelishi mumkin.Bunday takrorlar ritmik qofiyali takror soʻzlar deyiladi.Bunda oʻzakdagi biror harf yoki boʻgʻin takror qoʻllanganda qofiyalanib keladi.Qofiyali takror soʻzda oʻzak toʻliq takrorlanib keladi va oʻzak takrorlanib kelganda harf oʻzgaradi va oʻzaro qofiya hosil boʻladi.Bulardan kelib chiqib qofiyali takror soʻzlar 3guruhga boʻlinadi,bular:

- 1.Unli harfi takrorlanib keladigan qofiyali takror soʻzlar.
- 2.Undosh harfi takrorlanib keladigan qofiyali takror soʻzlar.
- 3.Erkin qofiyali takror soʻzlar.

Undosh harfi takrorlanib keladigan qofiyali takror soʻzlar shunday soʻzlarki, unda biror soʻzning oʻzagidagi undosh harf takrorlanganda qofiyalanib keladi.Bunda undosh harflarni bir-biriga uygʻunlashib ketishini kuzatishimiz mumkin.Masalan:

## QARO QOSHING

Qaro qoshing, qalam qoshing,

Qiyiq qayrilma qoshing, qiz.

Qilur qatlma qasd qayrab —

Qilich qotil qaroshing, qiz.

Qafasda qalb qushin qiynab,

Qanot qoqmoqqa qoʻymaysan.

Qarab qo`ygil qiyo,  
Qalbimni qizdiring quyoshing, qiz.

O`zakda qo`shimchasi mavjud bo`lgan so`zlar ham takror holda qo`llanilishi mumkin, bular qo`shimchali takror so`zlar guruhiga kiritiladi. Masalan:

Ol o`zing koshonalarni,  
Menga qo`y mayxonani,  
Barcha hushyorlik senga-yu,  
Barcha xummorlik menga.[3]

## XULOSA

Xulosa qilib aytganimizda, sevimli shoirimiz Erkin Vohidov o`zining she`rlarida mumtoz she`riyatimizda an`anaga aylangan o`nlab badiiy san`atlar, jumladan, takror(takrir) san`atining go`zal namunalarini yaratib, badiiy mahoratini namoyish qila olgan. Shuning uchun ham she`rlari kitobxonlar tomonidan tez yod olinadi va uzoq vaqt xotirada saqlanib qoladi.

Shunday ekan, yangi bosqich o`zbek she`riyatini hozirgi milliy she`riyat takomilida o`z o`rniga ega, tasvir va ifoda yo`nalishida yangi so`qmoqlar ochgan Erkin Vohidov ijodiy mahorati timsolida o`rganish o`zbek she`rshunosligi va tanqidchiligining kelajakdagi yo`nalishlarini belgilab beradi va shoir nomini abadiyatga muhrlaydi, deyishimizga asos bo`ladi.

## REFERENCES

1. O`zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
2. Егоров В.Г “Словосложение в тюркских языках ” г-1971
3. Vohidov Erkin. Asarlar. Uchinchi jild. Kuz sahovati. – T.: Sharq, 2016.